


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



Ro'yxaatga olindi: № BD 60211000-1.01

MUSIQIY OVOZ REJISSYORLIGI SAN'ATI
(Ovoz rejissyorligiga kirish)

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60210100- Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi)

Fan/modul kodi MRS1823	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-8	ECTS-Kreditlar 23	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4-2	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati (Ovoz rejissyorligiga kirish)	300	390	690
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati fanining asosiy maqsadi-ovozi rejissyorligi sohasi bo'yicha mukammal bilimlarni o'rgatishdan iborat.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarini ovoz rejissyorligining tarixi va rivojlanishi, ovoz yozuvlarining an'anavi hamda zamonaviy turlarini, ovoz yozish studiyalari texnik anjomlari va ularning rivojlanish tendensiylarini, amaliy jihatdan esa ovoz yozushi texnik jihozlaridan foydalanish, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, elektron musiqa turlarini sohalarda qo'llash, turli jamoalar ovoz yozuvining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ijodiy yondoshuvni shakllantirish vazifasini bajaradi.</p> <p>Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar ovoz rejissyorligining turli yo'naliishlarda bilimlarga ega bo'lganliklurini namoyish etishlaridan iboratdir. Ushbu fan bo'yisha talabalar mukammal ravishda musiqiy ovoz rejissyorligi san'atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, klassik musiqa san'atning turli janr va shakllaridagi asarlarning ovoz yozuvlari, ularning tenglashtirish jarayonlari hamda ularini tahlil qilish borasidagi bilim va ko'nikmalarni namoyish etishlari zarur.</p>			
	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 10 soat</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>I-bo'lim (1-semestr) (Ovoz rejissyorligiga kirish)</p> <p>I-mavzu. Kirish,Fanning asosiy vazifasi</p> <p>Ovoz rejissyorligiga kirish sanining maqsad va vazifalari. Zamonaviy ovoz rejissyorligining o'mi. Ovoz rejissyorligi ishlaringning turlari. Yozuvdagagi tovush</p>			

informatsiyalari ovoz rejissori ish faoliyatining mahsul-natijasi. Ovoz rejissori – yozilgan audio mahsulot asarning to'laqonli hammuallifi.

2-mavzu.Ovoz yozuvi tarixi

Birinchi ovoz yozuvlari, Edisonning ixtirosi. Fonografning ishlash prinsiplari. Ovoz yozib oluvchi asbob uskunalarining takomillashib borish evolyutsiyasi – fonograf, gramofon, patefon, elektrofon va magnetofon.

3-mavzu.Ovoz rejissyorligi yo'nalishlari

TV, radio, kino, studiya, teatr ovoz rejissorlarining ish jarayoni. Har bir yo'nalishning o'ziga xos qirralari , ish jarayoni davomida e'tibor qaratiladigan asosiy nuqtalar. Teatr ovoz rejissyorligi. Kino ovoz rejissyorligi. Televideniye va radio ovoz rejissyorligi.To'g'ridan to'g'ri efirgi chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. Simfonik va kamer musiqasi kontsertlarini ovozlashtirish. Ovoz rejissorining ochiq tomosha maydonlaridagi ishlash xususiyatlari.

4-mavzu.Analog ovoz yozuvi tarixi.

Mexanik, optik, magnit ovoz yozuvi. Analog ovoz yozuvining rivojlanish bosqichlari. Analog tovush eltuvchilariga tovushni yozib olish va qayta eshittirish jarayoni.

5-mavzu. Raqamli ovoz yozuvi va zamonaviy ovoz rejissyorligi

Raqamli siqilmagan va siqilgan audio formatlar (WAV, MP3,Ogg va h.), raqamli ovoz eltuvchilar (CD, MD, DVD, DAT va h.), ularning hajmi, yozib olish tizimlari (lazer ovoz yozuvi, magnitooptik ovoz yozuvi va h.). Zamonaviy ovoz rejissyorligida kompyuter musiqiy dasturlarning o'rni.

Seminar mashg'ulotlari.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ovoz yozuvi va ovoz rejissyorligi tarixi
2. TV, radio, studiya, konsert zallari, kino, teatr ovoz rejissyorligi faoliyat turlari.
3. Wave,MP3 formatlarning ovoz rejissyorligidagi o'rni
4. CD,DVD,DAT,MD ovoz eltuvchilari xususiyatlari

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni seminar mashg'ulotlarida turli shakllar bilan sinovlardan o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlari fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Analog signalni raqamlash jarayoni.
2. Diskretnash, kvantlash, kodlash.
3. Analog signalni raqamlash jarayonida tovushning sifatini saqlab qolish maqsadida e'tibor berilishi kerak bo'lgan tomonlar.
4. CD, DVD, DAT, MD tovush eltuvchilari kelib chiqish tarixi va rivojlanishi haqida, ularning hajmi, ishlab chiqlgan materiali va yozib olish prinsiplari.
5. Analog va raqamli tovush eltuvchilarining o'zaro farqi va afzallikkleri .
6. TV, radio, studiya, konsert zallari, kino, teatr ovoz rejissyorligining o'ziga xos xususiyatlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangn auditoriyada bir akademik guruhsiga bir professor-o'qitushi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. YAKKA MASHG'ULOTLAR

II-bo'lim (1-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

Ovoz yozuvi va ovoz uzatish (yakka mashg'ulotlar)

1-8-mavzular.Ovoz yozuvining turlari

Mexanik, optik va magnit ovoz yozuvlari. Analog va raqamli ovoz yozuvlari ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nutq va musiqiy yozuvlarda ovoz rejissorining vazifasi. Ovoz rejissyorligi faoliyat turlari. Cubase, Pro Tools dasturlarining turli versiyalari imkoniyatlari.

Oraliq nazorat

I-bo'limda o'tilgan mavzular bo'yicha talabalardan savol javob tarzida so'rovrlarga javob berish va II-bo'limda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni bajarganliklari umumlashtirilgan holda baholanadi.

9-10-mavzular.Musiqiy montaj, uning maqsad va vazifalari

Montaj ijrochi o'z talqinini maksimal imkoniyatlarini amalga oshirish ma'lum uslubi sifatida. Konsertni yozib olishda montajning o'ziga xos xususiyatlari. Cubase, Pro Tools dasturlarida ko'p kanalli fonogrammalarning montaji.

11-15 mavzular.Ovoz yozuvi amaliyoti rivojlanish tarixi va zamonaviy vositalari
Ovoz yozish texnikasi va badiiy imkoniyatlarining rivoji. Akustik va elektrik ovoz
yozish uslublari, magnit va mexanik yozuv, magnit tasmalar va gramplastinkalarda
mavjud bo'lgan formatlar. Optik yozuv tizimlari. Ikki kanalli (stereo) uzatish tizimi.
Turli xildagi ovoz yozuvini saqlovchi moslama va formatlarni qo'llash. DAT,
DASH, minidisk kompakt disk, DVD, SASD, multimedya formatlari. Tovushning
(makon) hajmlli eshitiruv tizimlari. Binaural stereofoniya bifoniya, har xil
formatlardagi surround sound.

Yakuniy nazorat

I-bo'lim yakuni bo'yicha o'tilgan mavzulardan tuzilgan savollar asosida
talabalardan savol javob tarzida so'rovrlarga javob berish va II-bo'limda o'tilgan
yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni bajarganliklari
baholanadi va umumlashtirilgan holda yakuniy nazorat ballari qo'yiladi.

II-bo'lim (2-semestr) (Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-4 mavzular:Fonogrammalar sifatini (professional) kasbiy baholash

Ovoz yozuvi sifatini sub'ektiv baholash uslublari. badiiy, estetik, badiiy-texnik.
Baholash (protokol) bayoni. Makon taassuroti. Turli uslublardagi musiqa yozuvi
davrida makon taassuroti-hissini amalga oshirish an'analari; Timqlik; musiqiy
(balans) muvozanat; Tembr; Ijro tavsifi; Texnikaviy mulohazalar; Stereotaassurot;
Ovoz yozuvining umumiyl estetik bahosi. Passiv eshitish amaliyoti. Auto Tune,
Melodyne musiqiy muharrirlarining turli versiyalari va ularning qo'llanilishi.

Oraliq nazorat

II-bo'limda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy
topshiriqlarni ijodiy ishlari (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi.

5-8 mavzular:Ovoz yozuviga tayyorgarlik va uni amalga oshirish

Ovoz yozuviga tayyorgarlik loyiha ustida ishlashning dastlabki va zaruriy
bosqichlari. Partiturani o'rganish. Cholg'ular guruhlari, kompozitor ijod uslubining
o'ziga xos xususiyatlari, asarning dinamik tarkibi. Ovoz yozuvi uslubini tanlash
(sinxron, ko'p kanalli va b.). Rejalashtirilgan jarayonni amalga oshirishda texnik
vositalar, musiqiy muharrirlar va dasturlarni tanlash.

9-15 mavzular:Ijrochi bilan ishlash jarayoni

O'zaro ijodiy ish jarayoni munosabatlarini tashkil etish. Ovoz rejissorining o'zaro ijodiy ish jarayoni munosabatlarini tashkil etishda - namuna darajasida bo'lishi. Ovoz yozuvi jarayonida axloq-odob me'yori talabi. Ijrochilik mahorati va ma'qul talqingga erishishga ko'mak berishga hatti harakat.

Yakuniy nazorat

II-bo'limda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 2 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(3-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-7 mavzular:Ovoz rejissyorligining (klassik) an'anaviy uslublari orqali tovush (ovozi) kengligini hosil qilish

Yaqin, umumiy va yiroq mikrofonlar haqida tushuncha. Umumiy mikrofonni o'rnatish qoidasi. Stereofonik tizim va mikrofon (model) rusumlarini tanlash. Yiroq mikrofonlarning joylanish tartibi. Stereofonik tizim va mikrofon (model) rusumlarini tanlash. Ovoz rejissyorligining klassik uslublari orqali surround sound tizimida yozuvni amalga oshirish uchun mikrofonlarni joylash tartibi.

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi.

8-15 mavzular: Ko'p yo'lli ovoz yozuvi

Klassik (mumtoz) musiqani ko'p yo'lli uslubda yozib olish. Ko'p yo'lli yozuv montaji va mikrofonlar joylanish tartibining o'ziga xos xususiyati. Klassik janrdagi musiqiy asarlar ovoz partiyalarini ko'p yo'lli uslubda birin ketin yozib olish. Partiturani to'ldirish tartibi. Yozib olingan audio mahsulotni tenglash - (svedenie) ijodiy jarayon.

Yakuniy nazorat

3-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 3 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(4-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

**1-8 mavzular: Musiqa cholg'ulari va inson ovozini yozishda mikrofonlarning
joylanish tartibi**

Musiqa asboblarning tuzilishi. Insonning ovoz chiqarish mexanizmi tuzilishi haqida. Mikrofonni yaqin o'rnatish masofa me'yori va mikrofon rusumini (tip-model) tanlash. Musiqa asboblari guruhi. Torli kamonli cholg'ular; yog'ochli puflama cholg'ular; misli puflama cholg'ular; Zarbli cholg'ular; Fortepiano klavesin, arfa, organ. Inson ovozi. Suxandon ovozini yozish. Klassik va xalq aytim yo'nalishidagi ovozlarni yozish. O'zbek xalq cholg'ularini yozishning o'ziga xos xususiyatlari.

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi

9-15 mavzu.Ovoz yozuvini qayta ta'mirlash (Restavrasiya fonogramm)

Ta'mirlash madaniyati. Ommalashgan ta'mirlov kompyuter dasturlarining tavsifi Ayrim hollardagi ovoz buzilishlarining bartaraf qilinish yo'llari. Ijro shovqinlarini bartaraf qilish. Asl yozuvdagagi makon hissi ovoz tasavvuri tavsifi (pseudostereo 5. 1). Musiqiy montajning asoslari. Yuqori bosqich talabalar yoki o'qituvchi tomonidan yozib olingen musiqiy asar ma'lum (10 daqiqagacha bo'lgan) qismining montaji.

Yakuniy nazorat

4-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 3 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(5-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-2 mavzular: Nazorat (agregat) jihozlari

Tinglov xonasi akustik holatining ovoz taralish sifatiga ta'siri. yaqin, o'rta va uzoq ovoz nazorati jihozlari hamda bosh telefonlari vositasi orqali ishlash.

3-8 mavzular: Ovoz rejissyorligi mikshер pulti to‘liq imkoniyatlaridan foydalanish

Kirish zanjirlari. attenuator, fantom ta'minlash chizmasi. Feyderlar. Aylanma (panorama) potensiometrlar. Chastotali korrektorlar. Daraja ko'rsatkichlari. Goniometr va korellometrlar. Dinamik ko'lamni o'zgartiruvchi moslamalar. Komپander tizimlari. Reverberatorlar. Sun'iy reverberasiya badiiy uslub sifatida. Tovush signallarining qayta ishlov moslamalari. (De-esser, Chorus, Flanger, Tremolo, Ping pong va b.). Ishlash uslubi. Qo'llashnilish ko'lami. Ovoz rejissyorligi pultining tuzilishi. Analog pultlar. Raqamlı pultlar. Ulanish (kommutasion) imkoniyatlari

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi

9-15 mavzular: Klassik ansamblari ijrochilarida mikrofonlarni joylashtirish va yo'zib olish

Bitta xonada bir nechta yaqin mikrofonlarni joylashtirish tartibi. Yakkaxonlar ansamбли va fortepiano. Torli va puflama cholg'ular ansamblari. Ansambl jo'rligidagi vokal.

Yakuniy nazorat

5-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 3 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(6-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-8-mavzular. Klassik orkestrlar va xor jamoalari ovoz yozuvlari.

Kamer orkestri. Kamer orkestri va yakkaxon. Xalq cholg'ulari dastalari. Xor jamoalari ovoz yozushi.

Yakkaxon ijrochilar ovoz yozushi. O'zbek xalq cholg'ulari dastalari ovoz yozushi.

Kamer ansamblarining ovoz yozushi (ansambl va fortepiano, kvartetlar, trio).

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi

9-15 mavzular. Estrada ansambllari ovoz yozuvlari.

Estrada ansambllari partiturasini bo'yicha ovozlarini yozish tartibi. Vokal cholg'u ansambllari ovoz yozuvlari. Tenglashtirish (svedenie) tovushlar obrazini yaratishdagi ijodiy jarayon sifatida.

Ansambl jo'rligida yakkaxon ijrochilar ovoz yozuvilarini (ansambl va fortepiano, brass kvintet va hk.).

Yakuniy nazorat

6-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 3 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(7-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-8 mavzular:Katta jamoalar ovoz yozushi uslublari.

Simfonik va estrada simfonik orkestrlar tarkiblari va ularning an'anaviy joylashuv tartibi. Orkestr ichida mikrofonlarni yaqin joylanish tartiblari. Ijrochilarining sahna va studiyadagi joylashuvi variantlari. Katta simfonik orkestrlar tarkiblari va ularning an'anaviy joylashuv tartibi.

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi

9-15 mavzular: Ochiq maydonni ovozlashtirish ishlari

Ochiq maydonlar va tamoshagohlarda turli ansambllar, xor jamoalari, orkestrlarning an'anaviy va noan'anaviy joylashuv tartiblari. Ijrochilarining sahnada joylashuvi va ularni mikrofonlar bilan ta'minlash variantlari. Jonli ijrolarni ovozlashtirishda stereotizimlardan foydalanish.

Yakuniy nazorat

7-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 3 ta

ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

(8-semestr)

(Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati)

Yakka mashg'ulotlar

1-6 mavzular. Kompyuter musiqiy dasturlarining ovoz yozuvida qo'llanilishi
Sintezlangan musiqiy maxsulotning badiiy xususiyatlari. Elektron musiqiy cholg'ularning (klassifikasiyasi) tasnifi. Midi interfeys. Kompyuter texnologiyasi musiqiy dasturlari bilan ishlash.

Xalq cholg'ulari orkestrlarining ovoz yozuvi. Xalq cholg'u kamer orkestrlarining ovoz yozuvi. Puflama cholg'ular orkestrlarining ovoz yozuvi. Xor musiqasining ovoz yozuvi. Akademik jamoalar ovoz yozuvi. Xalq og'zaki ijodi musiqiy folklor dastalarining ovoz yozuvi.

Oraliq nazorat

O'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha talabalar amaliy topshiriqlarni ijodiy ishlar (ovozi yozuvlari) tarzida bajarganliklari baholanadi

8-15 mavzular: Ovoz yozish studiyalari, televideniya va konsert zallari ovoz rejissyorligi

Raqamli ovoz yozuv turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Kompakt disk chiqarishdagi «mastering» qilish yagona dasturi malakalari. Kamer orkestrlari ovoz yozuvlari. Kamer okestri va yakkaxon sozandalar ovoz yozuvlari. Simfonik orkestrlar ovoz yozuvlari. Simfonik okestri va yakkaxon sozandalar ovoz yozuvlari. Ovoz yozish studiyalarida amaliy ishlar

Televidenieda ovoz echimi. musiqiy ko'rsatuvlar. Sport ko'rsatuvlariga xos shovqinlar. To'g'ridan to'g'ri efirgi chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. Simfonik va kamer musiqasi konsertlarini ovozlashtirish.Ovoz rejissorining ochiq tomosha maydonlaridagi ishlash xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ish (ijodiy ish) va uning tahlilini tayyorlash.

Yakuniy nazorat

8-semestrda o'tilgan yakka mashg'ulotlat bo'yicha hamda "Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati" fanidan Yakuniy Davlat attestatsiyasiga taqdim etilishi talab etilgan topshiriqlarni, ijodiy ishlar (ovozi va video yozuvlari) tarzida bajarganliklari va kamida 4 ta ijodiy ishni mikrofon kartalari bilan yakuniy komissiya a'zolariga taqdim etib ovoz yozuv jarayonini tushuntirib berishlari asosida baholanadi.

IV. Yakka mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha yakka mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlar har bir mavzu yuzasidan ovoz yozish o'quv ishlab chiqarish studiyasida, tomosha tadbirlari hamda konsert sahnalarida, teleradio kompaniya va xususiy radio stansiyalarida takroriy tajribalar (audio-video texnika anjomlari vositasida), orqali sinab ko'riliши yaxshi natijalar beradi.

Yakka amaliy-mashq' mashg'ulotlari ayrim asarlarning akustik masalalari (musiqiy yozuvlarning turli xil audio formatlardagi shakli) nuqtai nazaridan tinglab ko'rish, tajriba (studiya va apparat xonalar akustik holatini tegishli texnik moslamalar bilan o'lichash)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ovoz yozuvi, ta'mirlovi va uni tinglov nazoratlari) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro audio yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib tegishli formatlarda saqlash, teleradio uzatish, tomosha taddbirlari va konsert sahnalarini ovozlashtirish hamda akustik sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yildi.

Yakka mashg'ulotlar turli shakllar bilan sinovlardan o'tkaziladi. mazkur mashg'ulotlar fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

V. Ijodiy ishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Studiyadagi musiqiy yozuv jarayonida akustik jihatlarni, mikrofonlar tizimini ishlatish uslublarini (aniq joyini belgilash, hisoblar natijasida tovushning ta'sir kuchini sezishni) amaliy mashg'ulotlar doirasida o'zlashtirib olish ijodiy ishda nazarda tutiladi. Ovoz yozuvlari orqali konsert repertuarni bevosita fono mahsulot shakliga keltirish hamda OTM fonotekasi zahirasiga kiritish ishlari ham bajariladi.

Ijodiy ish belgilangan uslubiy ko'rsatma va talablar asosida bajariladi. Musiqiy OTMlari xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur fan bo'yicha ijodiy ishi binolar, apparat xonalari, ovoz yozish studiyalari, konsert sahnalarini va tomosha maydonlari kabi joylar akustik xususiyati, tegishli texnik audio-video anjomlari, audio mahsulot, berilgan mavzu ijodiy ish tariqasida olib boriladi hamda mikrofon kartalari chizmalari bilan har semestr oxirida yakuniy reyting vaqtida ijodiy ish tariqasida taqdim etiladi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

	<p>Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovush tabiatи va uning asosiy parametrlari. 2. Reverberaciya,rezonans ,Dopler effekti, binaural effect hodisalari. 3. Ovoz yozish studiyalarining turlari va ularning reverberatciya vaqtı. 4. Mikrofonlarning turlari,teknik o'lchamlari va etakch firmalarning nomlari. 5. Mikscher pultining turlari,undagi imkoniyatlар va etakchi firmalar nomi. 6. Tovushlarni qayta ishlash. 7. Makonda tovushni his qilish. 8. Eqvolayzerdan foydalanish qonun-qoidalari. 9. Kompressorning asosiy parametrlari. 10. Mikrofonlarni joylashtirish qonun-qoidalari. 11. Instrumental duetlarni studia sharoitida yozib olish 12. Stereofoniya asoslari.AB,XY,MS tizimlari 13.Urma cholg'ularni yozib olish yo'llari.Mikrofonlarni tanlash va joylashtirish uslublari.Elektro asboblarni to'g'ri ulash. 14. Xor jamoasini yozib olishda mikrofonlarni joylashtirish Ekvolayzerlardan foydalanish. Kondensatorli mikrofonlar 15. Kamer orkestrni ovozlashtirish va yozib olish. 16. Estrada orkestrini ovozlashtirish jarayoni. 17. Radio mikrofonlardan foydalanish. 18.Musiqiy asbobning turiga qarab mikrofonni to'g'ri tanlash va joylashtirish. 19. AUX yo'nalişlar orqali monitor liniyalariga tovushlarni jo'natish.Konsert pultida AUX chiqishlarning soni ko'p bo'lishining sabablari va ular orqali signallarni uzatish jarayoni. 20. Simfonik orkestr va xor jamoalarini ovozlashtirish:oratoriya,kantata janrlari. 21.Yirik simfonik janrlarda polimikrofoniya tizimida ishlash qiyingchiliklari,tovush planlarini hosil qilishda effektlardan foydalanish usullari <p>Mustaqil ta'lifni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lif resurslaridan, ta'lif muassasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalarlan, ovoz yozish studiyalari, O'zMTRK kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbiy mahoratni rivojlantirish va takaommillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.</p>
3.	<p>VII. Ta'lif natijalari /Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Musiqiy ovoz rejissyorligi sanati xususiyatlari,televidenie, radio, ovoz yozish

	<p>studiyalari, konsert zallari, ommaviy bayramlar ovoz rejissyorligi sohalari, tovush signallarini qayta ishlovchi moslamalar, ovoz rejissori pulsi,kasb asoslari, televideniya, radio va professional ovoz yozish studiyalarida ishlash xususiyatlarini <i>bilishi kerak</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> • ovoz yozish studiyasi, radio ovoz rejissyorligi, televideenie ovoz rejissyorligi, miksher pulsi boshqaruvi va ovoz trakti elementlari bilan ishlash,turli xil janr va yo'nalishlardagi asarlarni yozib olish, ovoz yozuvini amalga oshirishda texnik vositalarni tanlay olish, ko'p kanalli ovoz yozuvlarini musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalangan holda tenglashtirish (svedenie)ni, ovoz yozish manzarasini oldindan ko'ra bilish va grafik loyihalarini tuzish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. • ovoz montajini, stereofonik ovoz yozish xususiyatlari va uni qo'llashni, ko'p mikrofonli yozuv asoslarini xorlar, turli orkestrlar jamoalarining ovoz yozuvini, opera, kantata va oratoriylar ovoz yozuvining xususiyatlarini, audio yozuvlarni ko'chirish, montaj va ta'mirlash amallarini bajarish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>;
4.	<p>VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • ijodiy taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma va ijodiy ish (audio yoki video yozuvlar)ni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1.Sh. Gafurova. Kompyuter musiqasi texnologiyasi (Cubase dasturi). T., 2019. 2.В.Гущин, Р.Умарходжаев, М.Насыров Акустические основы звукорежиссуры</p>

- o‘quv qo‘llanma T., 2008.
- 3.A.Mirzaev. Ovoz yozish studiyasi jihozlari va ovoz yozish tizimi. O‘ quv qo‘llanma “Musiqa” T., 2020.
- 4.A.Mirzaev. Ovoz kuchaytirish apparaturasi va xavfsizlik texnikasi.
O‘quv qo‘llanma “Muharrir”T. 2013.
- 5.А.В.Севашко Звукорежиссура и запись фонограмм(профессиональное руководство) о‘quv qo‘llanma «Альтекс» М.2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, NMU, 2017.-488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutq. T.: “O‘zbekiston”, NMU, 2017.-32 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: “O‘zbekiston”, NMU, 2017.-32 b.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.
6. Алдошина И.А. Акустические системы и громкоговорители.Основы устройства. O‘ quv qo‘llanma. СПб., ГУТ, 2000
7. Гущин В.Н., Насыров М.З., Оборудование студий и системы звукозаписи. Часть I. Т., 2004.
8. П.Бюник – Живой звук. O‘ quv qo‘llanma. М. 2011
9. Алдошина И., Притц 3.- Музыкальная акустика. o‘quv qo‘llanma M.2006

Axborot manbalari

1. <http://www.zivonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://konservatoriya.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. www.gov.uz
6. www.uza.uz
7. www.zvukorejisser.ru
8. <http://bookzz.org>

MUSIQIY OVOZ REJISSYORLIGI SAN'ATI (OVOZ REJISSYORLIGIGA KIRISH) FANING O'QUV DASTURI

	9. http://booksee.org 10. http://millionsbooks.org 11. http://designingsound.org 12. http://www.udemy.com 13. http://www.universarium.org
7.	O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti Kengashida muhokama etilgan va tasdiqlangan. 2024 yil " <u>30</u> " <u>avgust</u> dagi <u>1</u> -sonli bayonnomma
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: A.Mirzaev - O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI dotsenti B.Yuldashev O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI katta o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Sh.Gafurova - O'zDK professori, texnika fanlari nomzodi I.Boltabaev - O'MTRK "O'zbekiston" teleradiokanalı bosh ovoz rejissori